Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish muammosining ilmiy-nazariy tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu fenomen psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, kommunikatsiya nazariyasi va media tadqiqotlari kesishmasida shakllanadigan ko'p komponentli hodisadir. Shu sababli mazkur tushunchani faqat axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi yoki media savodxonlik darajasi bilan chegaralash metodologik jihatdan yetarli emas. Axborot iste'moli madaniyati shaxsning axborotni izlash, tanlash, qabul qilish, qayta ishlash, tanqidiy baholash, undan foydalanish va boshqalarga uzatish jarayonlaridagi kognitiv, motivatsion, emotsional, refleksiv hamda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining integrativ namoyon bo'lishini ifodalaydi.

O'zbekiston psixologiya fanining shakllanishida shaxs, tafakkur, faoliyat, muloqot va yosh davrlarining psixologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar mazkur muammoning nazariy-metodologik asoslarini tashkil etadi. Xususan, M.G'. Davletshinning yosh davrlari va pedagogik psixologiyaga oid tadqiqotlarida shaxsning rivojlanishi, o'quv faoliyati, bilish jarayonlari va ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari muhim psixologik omillar sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuv nuqtayi nazaridan talabalik davrida axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonlarini shaxsning yoshga xos psixologik rivojlanishidan ajratib o'rganish mumkin emas. Demak, axborot iste'moli madaniyatining shakllanishi shaxsning bilish faoliyati va mustaqil fikrlashining rivojlanish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir.

E.G'. G'oziyevning tafakkur, shaxs va bilish jarayonlariga oid ilmiy qarashlari ham mazkur muammoni psixologik jihatdan asoslash uchun muhim metodologik manba hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida tafakkurning faol, maqsadga yo'naltirilgan va muammoli vaziyatlarni hal etishga qaratilgan jarayon sifatidagi xususiyatlari yoritiladi. Ushbu nazariy qarashlarni axborot iste'moli jarayoniga tatbiq etadigan bo'lsak, axborotni shunchaki qabul



qilish emas, balki uni taqqoslash, tahlil qilish, dalillarning ishonchligini aniqlash, muqobil fikrlarni ko'rib chiqish va mustaqil xulosa chiqarish shaxsning yuqori darajadagi kognitiv faolligini talab qiladi. Shu ma'noda tanqidiy fikrlash axborot iste'moli madaniyatining asosiy psixologik mexanizmlaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Mahalliy ilmiy maktabda shaxsning ijtimoiylashuvi va muloqot jarayonlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar ham axborot iste'moli madaniyatining ijtimoiy-psixologik tabiatini tushuntirish uchun muhimdir. Shaxsning xulq-atvori ijtimoiy muhit, guruhii munosabatlar, qadriyatlar va muloqot jarayonlari ta'sirida shakllanishi haqidagi yondashuvlardan kelib chiqib, talabaniing axborotga munosabati ham individual hodisa emas, balki ijtimoiy tajriba va kommunikativ muhit bilan shartlangan jarayon sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy mahalliy tadqiqotlarda axborot va media madaniyati masalasiga bevosita murojaat qilinayotganini ko'rish mumkin. Xususan, Artikova M.B. va Umarov A.V. tomonidan tayyorlangan "Pedagogik oliy ta'limda talabalarning media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirish" nomli uslubiy qo'llanmada media madaniyat shaxsning turli manbalardan olinadigan ma'lumotlarni idrok etishi, qidirishi, tadqiq qilishi, tahlil qilishi va tanqidiy baholashi bilan bog'liq kompleks hodisa sifatida talqin qilinadi. Mualliflarning yondashuvi media vositalari bilan ishlashning faqat texnik tomonlarini emas, balki bilim, his-tuyg'u, munosabat va xulq-atvor reaksiyalarining o'zaro birligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv axborot iste'moli madaniyatini integral psixologik-pedagogik hodisa sifatida tadqiq etish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Shuningdek, A.T. Rustamning media savodxonlik tushunchasining ilmiy-nazariy tahliliga bag'ishlangan tadqiqotida media savodxonlikning media matnlarni tahlil qilish, baholash va yaratish bilan bog'liq jihatlar yoritilgan. Ushbu yondashuvdan ko'rinadiki, zamonaviy media savodxonlik shaxsning tayyor axborotni qabul qilish qobiliyati bilangina cheklanmay, uning axborot mazmuniga nisbatan faol subyekt sifatidagi pozitsiyasini ham nazarda tutadi.

Mahalliy tadqiqotchilar Sh. Zaxiriddinova, M. Nurova va F. Murodovlarning raqamli transformatsiya sharoitida talabalarning media savodxonligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlariga bag'ishlangan tadqiqotlari ayniqsa mazkur maqola mavzusiga yaqinligi bilan ahamiyatlidir. Mualliflar axborot oqimining jadallashuvi, talabalarning axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalari, axborot xavfsizligi, manipulyativ kontent va feyk xabarlar bilan ishlash masalalarini bir butun tizim sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu tadqiqot media savodxonlikni rivojlantirishda kognitiv kompetensiya va tanqidiy fikrlashning o'rnini asoslash bilan birga, oliy ta'lim muhitida ushbu sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlariga e'tibor qaratadi. Yoshlarning axborot muhitidagi xulq-atvoriga bag'ishlangan mahalliy tadqiqotlarda axborot madaniyati, media savodxonlik va raqamli kompetentlik o'zaro bog'liq tushunchalar sifatida qaralmoqda. Jumladan, Moxichexra Baxrilla-yevaning o'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqotida axborotni tanlash, manba ishonchligini aniqlash, yolg'on xabarlarini farqlash, axborot xavfsizligi va internet etikasi masalalari alohida ko'rib chiqilgan. Ushbu yondashuv yoshlarning axborot xulq-atvorini shakllantirishda nafaqat bilim, balki tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mas'uliyatning ham muhimligini ko'rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlarda axborot-psixologik tahdidlar masalasining ham tobora ko'proq o'rganilayotgani kuzatiladi. Xususan, talabalar orasida axborot-psixologik tahdidlarning oldini olish masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda yoshlarning axborot xurujlaridan himoyalaniishi, media madaniyatini rivojlantirish va psixologik immunitetini mustahkamlash masalalariga e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalish axborot iste'moli madaniyatining himoya funksiyasini, ya'ni shaxsning manipulyativ va zararli axborot ta'siriga nisbatan psixologik barqarorligini ta'minlash jihatini ochib beradi.

A. Xudayberdiyevning yoshlar madaniy kamolotiga axborot manipulyatsiyasi va ijtimoiy tarmoqlarga bog'liqlikning ta'sirini o'rgangan tadqiqotida raqamli muhitdagi manipulyativ mexanizmlar, ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta'siri va tanqidiy tafakkurning himoya funksiyasi tahlil qilingan. Muallif axborot manipulyatsiyasi yoshlarning axloqiy, estetik va madaniy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligini asoslaydi hamda media savodxonlik va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishni muhim profilaktik mexanizm sifatida ko'rsatadi. Ushbu yondashuv axborot iste'moli madaniyatini shaxsning "axborot immuniteti"ni shakllantiruvchi psixologik resurs sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda axborot madaniyatining shakllanishida yoshlarning ijtimoiy muhiti va ta'lim jarayonining o'rnini ham qayd etilmoqda. Yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda axborotni tanqidiy baholay olmaslik, axborotning ortiqchaligi, ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'lanish va media savodxonlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatilgan. Bunda ta'lim va oila yoshlarning axborot xulq-atvorini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy institutlar sifatida baholanadi.

Shuningdek, 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqotlarda yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishning xorijiy tajribasi va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari ham tahlil qilinmoqda. Bunday ishlar mahalliy ta'lim muhitida media savodxonlikni rivojlantirishning metodik va tashkiliy asoslarini boyitish bilan birga, O'zbekiston yoshlarining milliy-madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda axborot madaniyatini shakllantirish zaruratini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy psixologik tadqiqotlar ushbu bo'shliqni to'ldirish uchun muhim nazariy imkoniyat beradi. Xususan, D. Kahnemannning ikki tizimli fikrlash nazariyasi axborotni tezkor va intuitiv qabul qilish bilan analitik qayta ishlash o'rtasidagi farqni tushuntirsa, noto'g'ri axborot va dezinformatsiya bo'yicha tadqiqotlar shaxsning mavjud bilimlari, e'tiqodlari va axborotning takroriy taqdim etilishi uning ishonchlilikini baholashga ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. S. Vosoughi, D. Roy va S. Aralning tadqiqotlari esa emotsional va kutilmagan axborotning raqamli tarmoqlarda tezroq tarqalishi mumkinligini empirik jihatdan namoyon qilgan. Mazkur natijalar mahalliy tadqiqotlarda ko'tarilgan media savodxonlik va axborot xavfsizligi masalalarini psixologik mexanizmlar bilan boyitish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish asosida axborot iste'moli madaniyatining psixologik tuzilmasini quyidagi o'zaro bog'liq komponentlar orqali ifodalash mumkin:

- kognitiv komponent - axborotni tushunish, tahlil qilish, taqqoslash va tanqidiy baholash;
- motivatsion komponent - axborot izlash ehtiyoji, maqsadga yo'nalganlik va bilishga qiziqish;
- emotsional-regulyativ komponent - axborot ta'sirida yuzaga keladigan hissiy reaksiyalarni boshqarish;
- refleksiv komponent - o'zining axborot tanlovi va iste'molini anglash hamda nazorat qilish;
- ijtimoiy-psixologik komponent - guruh, tengdoshlar, oila, ta'lim muhiti va virtual jamoalarning ta'sirini anglash;
- axloqiy-mas'uliyat komponenti esa axborotni tarqatishda uning oqibatlarini hisobga olish va raqamli kommunikatsiya me'yorlariga rioya qilishni nazarda tutadi.

Demak, mahalliy olimlarning ilmiy ishlari axborot madaniyati va media savodxonlikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini yoritib bergan bo'lsa, zamonaviy psixologik yondashuvlar ushbu jarayonning ichki mexanizmlarini ochib berish imkonini beradi. Ushbu ikki yo'nalishning integratsiyasi talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishni yangi ilmiy konsepsiya sifatida tadqiq etish uchun zarur metodologik zamin yaratadi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning ilmiy muammosi axborot iste'moli madaniyatini shunchaki media savodxonlikning natijasi sifatida emas, balki talaba shaxsining tanqidiy tafakkuri, motivatsion yo'nalganligi, emotsional barqarorligi, refleksivligi, ijtimoiy-psixologik yetukligi va axborot uchun mas'uliyat hissining integrativ mahsuli sifatida o'rganishdan iboratdir. Bunday yondashuv talaba-yoshlarning raqamli axborot muhitida ongli tanlov qilishi, manipulyativ kontentga qarshi psixologik barqarorlikni namoyon etishi va axborotdan ijtimoiy mas'uliyat asosida foydalanishini ta'minlovchi psixologik omillarni empirik aniqlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlashga alohida e'tibor qaratildi. Olingan natijalar axborotdan foydalanish jarayoni faqatgina texnik ko'nikmalar bilan cheklanmasligini, balki shaxsning kognitiv, emotsional-irodaviy va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatdi. Xususan, axborotni tanlash, uning ishonchlilikini baholash, turli manbalarni taqqoslash, manipulyativ mazmunni farqlash hamda axborot ta'siriga nisbatan psixologik barqarorlikni namoyon etish talabalarning axborot iste'moli madaniyatini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'ldi.

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, talabalarning axborot izlash faolligi yuqori bo'lishiga qaramay, axborotning mazmuni va manbasini tanqidiy baholash darajasi barcha respondentlarda bir xil emas. Ayrim talabalarda axborotni tezkor qabul qilish va undan foydalanish ustunlik qilsa, axborotning haqqoniyligini tekshirish, muqobil manbalar bilan solishtirish va xulosani mustaqil shakllantirish ko'nikmalari yetarlicha rivojlanmaganligi kuzatildi. Bu holat axborotning ko'pligi avtomatik ravishda axborot madaniyatining yuqori darajasini ta'minlamasligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqotda talabalarning axborot iste'moli jarayonida kognitiv mezonlar muhim o'rin egallashi aniqlandi. Axborotning mantiqiyliigi, dalillarga asoslanganligi, manbaning ishonchlilikigi va mualliflik pozitsiyasini aniqlash qobiliyati rivojlangan talabalarda yolg'on, manipulyativ yoki biryozlama axborotni qabul qilish ehti-moli nisbatan past bo'ldi. Aksincha, tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yetarlicha shakllanmagan respondentlarda sarlavhaga asoslangan xulosa chiqarish, emotsional mazmundagi axborotga tez ishonish va tekshirilmagan ma'lumotlarni qayta tarqatish holatlari ko'proq uchrashi kuzatildi.



Olingan natijalar emotsional omilning ham alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Kuchli emotsional ta'sirga ega bo'lgan xabarlar, qo'rqituvchi yoki shov-shuvli mazmun, ijtimoiy jihatdan bahsli mavzular talabalarning diqqatini tezroq jalb qilishi va axborotni chuqur tahlil qilmasdan qabul qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, emotsional o'zini boshqarish, psixologik barqarorlik va impulsiv reaksiyalarni nazorat qilish axborot iste'moli madaniyatining muhim psixologik komponentlari sifatida baholandi.

Tadqiqot davomida ijtimoiy muhitning ta'siri ham aniqlandi. Talabani tengdoshlari, oila a'zolari, ta'lim muhiti va virtual kommunikatsiya doirasi uning axborot tanlash mezonlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda muayyan axborotning ko'p marotaba takrorlanishi uni ishonchli deb qabul qilishga olib kelishi mumkin. Demak, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda individual psixologik xususiyatlar bilan bir qatorda guruhiiy va ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni ham hisobga olish zarur.

Natijalar umumlashtirilganda, talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishni axborotni izlash → tanlash → tekshirish → tahlil qilish → baholash → undan mas'uliyatli foydalanish ketma-ketligidagi yaxlit psixologik jarayon sifatida qarash maqsadga muvofiqligi aniqlandi. Mazkur jarayonning samaradorligi talabani tanqidiy fikrlashi, media savodxonligi, metakognitiv nazorati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyati bilan uzviy bog'liq.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish uchun faqatgina axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish yetarli emasligini ko'rsatadi. Buning uchun talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni verifikatsiya qilish, media savodxonlik, psixologik barqarorlik, mustaqil qaror qabul qilish va axborot uchun shaxsiy mas'uliyatni kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Tadqiqot natijalari talaba-yoshlarning axborot iste'moli jarayonida psixologik omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Olingan ma'lumotlar shuni anglatadiki, axborotning mavjudligi va unga tezkor kirish imkoniyati shaxsning axborotdan oqilona foydalanishini avtomatik ravishda ta'minlamaydi. Aksincha, axborotni tanlash, baholash, tahlil qilish va undan foydalanish jarayonlari shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq.

Tadqiqot davomida aniqlangan holatlar axborot iste'molining samaradorligi, avvalo, talabani tanqidiy fikrlashi, axborotga nisbatan selektiv munosabati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va media savodxonlik darajasiga bog'liqligini ko'rsatadi. Xususan, axborot oqimining haddan tashqari ko'pligi shaxsda kognitiv yuklamaning ortishiga, diqqatning tarqoqlashishiga va muhim hamda ikkilamchi axborotni farqlashda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy talaba uchun nafaqat axborotni izlash, balki uning ishonchligini tekshirish va mazmunini psixologik jihatdan tahlil qilish kompetensiyasi ham muhimdir.

Natijalar axborot iste'molida emotsional omilning ham alohida o'rin tutishini ko'rsatadi. Shaxsning qo'rquv, xavotir, qiziqish, hayajon yoki norozilik kabi emotsional holatlari ayrim turdagi axborotlarga nisbatan yuqori selektivlikni yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, salbiy, keskin yoki sensatsion mazmundagi xabarlarning tezroq qabul qilinishi va tarqatilishi shaxsning emotsional reaksiyalari bilan izohlanadi. Demak, axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishda faqat texnik yoki axborotiy ko'nikmalarni rivojlantirish yetarli emas; talabalarning emotsional o'zini boshqarish va psixologik barqarorligini rivojlantirish ham zarur.

Tadqiqot natijalari, shuningdek, ijtimoiy muhitning axborot iste'moliga ta'sirini ham tasdiqlaydi. Talabani tengdoshlari, oila a'zolari, ta'lim muhiti va virtual kommunikatsiya tarmoqlaridagi ijtimoiy guruhlarining uning axborot tanlovi va unga munosabatini shakllantiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Ijtimoiy guruh tomonidan ma'qullangan axborotning tanqidiy tekshirilmasdan qabul qilinishi konformizm va guruhiiy ta'sir mexanizmlarining namoyon bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli talabalarda mustaqil fikrlash va axborot manbalarini mustaqil baholash ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik-psixologik vazifa hisoblanadi.

Mazkur natijalar axborot iste'moli madaniyatini shaxsning umumiy madaniyatidan ajratib bo'lmasligini ko'rsatadi. Axborotdan foydalanish madaniyati nafaqat axborotni qabul qilish, balki uning ijtimoiy oqibatlarini anglash, mualliflik va axloqiy me'yorlarga rioya qilish, manipulyativ mazmunni aniqlash, yolg'on va ishonchsiz ma'lumotlarni farqlash hamda axborotni mas'uliyat bilan qayta uzatishni ham qamrab oladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish tizimli xarakterga ega bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Bunda media va axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, raqamli xavfsizlik, psixologik immunitet hamda axborot etikasi o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirilishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi esa talabalarga tayyor axborotni beruvchi subyekt sifatida emas, balki axborotni izlash, tekshirish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi zarur. Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishni faqat media savodxonlik doirasidagi masala sifatida emas, balki shaxsning kognitiv, emotsional, irodaviy va ijtimoiy-psixologik rivojlanishi bilan bog'liq kompleks jarayon sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, talaba-yoshlarda axborotga nisbatan ongli, tanqidiy, selektiv va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim psixologik-pedagogik yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida talaba-yoshlarning axborot iste'moli jarayoni murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa ekanligi aniqlandi. Axborotning tezkor va keng ko'lamda tarqalishi sharoitida undan samarali foydalanish faqat texnik ko'nikmalar bilan belgilanmay, balki shaxsning tanqidiy fikrlashi, axborotni saralash qobiliyati, emotsional barqarorligi, mustaqil qaror qabul qilishi va ijtimoiy mas'uliyati bilan ham chambarchas bog'liq.

Tadqiqot natijalari talabalarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirishning asosiy psixologik shartlari sifatida tanqidiy fikrlash, axborot manbalarini baholash, media savodxonlik, emotsional o'zini boshqarish, psixologik barqarorlik va mustaqil fikrlash kabi sifatlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi. Mazkur sifatlarning uyg'un rivojlanishi talabaning turli axborot oqimlari orasidan ishonchli va ijtimoiy jihatdan foydali ma'lumotlarni tanlash imkoniyatini oshiradi.

Shuningdek, axborot iste'moliga ijtimoiy muhit, tengdoshlar guruhi, oila, ta'lim muhiti va virtual kommunikatsiya vositalari sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Shu bois talabalarda axborotga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatni shakllantirish individual psixologik ta'sirlar bilangina cheklanmasdan, ta'lim muassasasi va ijtimoiy muhitning hamkorligiga asoslangan tizimli yondashuvni talab etadi.

Axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish jarayonida talabalarni axborotni shunchaki qabul qiluvchi emas, balki uni izlovchi, tekshiruvchi, tahlil qiluvchi, baholovchi va mas'uliyat bilan qo'llovchi faol subyekt sifatida tarbiyalash muhimdir. Buning uchun ta'lim jarayoniga media va axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash, raqamli xavfsizlik hamda axborot etikasi bilan bog'liq amaliy topshiriqlarni keng joriy etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ularning nafaqat axborot bilan ishlash kompetensiyasini, balki psixologik immuniteti, ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va mas'uliyatli fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur yo'nalish zamonaviy oliy ta'lim tizimida muhim pedagogik-psixologik vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Allport G.W. The Nature of Prejudice. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1954.
2. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
3. Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
4. McLuhan M. Understanding Media: The Extensions of Man. – Cambridge, MA: MIT Press, 1994.
5. Rogers E.M. Diffusion of Innovations. – 5th ed. – New York: Free Press, 2003.
6. UNESCO. Media and Information Literacy: Policy and Strategy Guidelines. – Paris: UNESCO, 2013.
7. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023.
8. Wardle C., Derakhshan H. Information Disorder: Toward an Interdisciplinary Framework for Research and Policy Making. – Strasbourg: Council of Europe, 2017.
9. Livingstone S. Media literacy and the challenge of new information and communication technologies // The Communication Review. – 2004. – Vol. 7, No. 1. – P. 3–14.
10. Potter W.J. Media Literacy. – 9th ed. – Thousand Oaks: SAGE Publications, 2021.
11. Buckingham D. The Media Education Manifesto. – Cambridge: Polity Press, 2019.
12. Carr N. The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – New York: W.W. Norton & Company, 2010.
13. Tandoc E.C., Lim Z.W., Ling R. Defining "fake news": A typology of scholarly definitions // Digital Journalism. – 2018. – Vol. 6, No. 2. – P. 137–153.
14. Guess A., Nagler J., Tucker J. Less than you think: Prevalence and predictors of fake news dissemination on Facebook // Science Advances. – 2019. – Vol. 5, No. 1. – eaau4586.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi: PF-60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar.
16. Mirzaahmedova M. Yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligi va media madaniyati masalalari. – Toshkent, 2021.
17. Ramazonov J.Dj. Yoshlar axborot iste'moli madaniyatining ijtimoiy-psixologik jihatlar // Psixologiya. – Toshkent.
18. Raxmatova Z.B. Talaba-yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning psixologik-pedagogik omillari // Pedagogik mahorat. – Buxoro.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.